

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA NILUFAR OMON QIZI

**KOOPERATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA AFFILIATIV
MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Omonova Nilufar Omon qizi

Kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning
pedagogik tizimi.....3

Омонова Нилуфар Омон кизи

Педагогическая система развития affiliативной мотивации у студентов на
основе кооперативного подхода.....23

Omonova Nilufar Omon qizi

Pedagogical system for developing affiliative motivation in students based on a
cooperative approach.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA NILUFAR OMON QIZI

**KOOPERATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA AFFILIATIV
MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/Ped4017 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorova Muslima Qodirovna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Erkaboyeva Nigora Shermatovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "05" 04 soat 16 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tuman, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tuman, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "01" 04 da tarqatildi
(2025-yil "01" 041 dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
pedagogika fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak professor-o'qituvchilarni yuqori malakali, har tomonlama rivojlangan, mahoratli, dunyoqarashi keng va chuqur texnik bilim egasi etib tayyorlashga, ular o'rtasidagi hamkorlik, to'g'ri amalga oshirilyotgan munosabat birligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta'lim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tayyorlash zaruriyatining ahamiyatini oshirmoqda. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "mustahkam bilimning poydevoriga ega bo'lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.

Dunyoning nufuzli ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalar sog'lom dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini o'rganish asosida ularning kollaborativ muhitda bilim olish darajasini shakllantirish amaliyotiga doir qator ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Rivojlanyotgan ta'lim tizimida talabalarning dars va darsdan keyingi faoliyatidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish uchun hamkorlik ko'nikmasi, muloqot madaniyatiga alohida ahamiyat berilyapdi. Talabalarda hamkorlik ko'nikmasi, muloqot madaniyatini shaxs ma'naviy o'lchovi sifatida rivojlantirish tizimini yo'lga qo'yishga bog'liq bo'lgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga e'tibor qaratish zarurati dolzarb va ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish va strategik rivojlantirishning "yo'l xarita"larida hamkorlikda o'qitish orqali talabalar o'rtasida munosabat birligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar talabalarda ijtimoiy talab va majburiyatlarga moslashuvchan munosabatni qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, talabalarning o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi uning tuzilishi, ko'rinishlari va manbalarini aniqlashtirish, affiliativ motivatsiyani rivojlantirishda kooperativ yondashuv jarayonini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun zarur imkoniyatlar yaratilganligi hamda amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmonlari, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan O'.Abdullaeva, R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov, M.M.Axmetjanov, Sh.Sh.Olimov, S.S.Avezov, A.Xoliqov, B.B.Ma'murov, R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev, H.T.Omonov, M.B.Xattabov, O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva, K.Turg'unboev, M.Ortiqova, B.Xodjaev, N.T.Norkulovalarning tadqiqot ishlarida talabalarning o'quv faoliyatidagi hamkorlikni rivojlantirish, hamkorlik texnologiyasini amaliyotda qo'llashning afzalliklari, motivatsiya, affiliativ motivatsiya hamda unga ta'sir etuvchi holatlar, muloqot, muloqot turlari, qo'llash usullari, pedagogik tizim va uning ahamiyati masalasining o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.D.Murzagulova, Q.Q.Shalg'inbayeva, N.P.Albitova, T.S.Slambekova, A.Orlov, Y.Orlov, S.Rubinshteyn, S.Ilin, M.Magomed Eminov, H.L.Rufat, Z.M.Azizova, S.H.Aliyev, U.M.Verdiyeva, A.K.Markova, D.M.Fridman, M.Matyuxina, L.Petrjitskiylar kooperativ yondashuv hamda ta'limda qo'llanilishi, affiliativ motivatsiyaga aloqador psixologik xususiyatlarni, pedagogik tizimni rivojlantirish masalalarini o'rganan va tadqiq etgan.

Xorij olimlaridan P.Dillenbourg, M.Baker, A.Blaye, M.Deutsch, D.W.Johnson, R.Johnson, L.S.Barbara, J.MacGregor, R.Matthews, M.Kagan, S.Kagan ta'lim jarayonida kooperativ yondashuvning nazariy asoslarini izohlagan. Motivatsiya, xususan, affiliativ motivatsiyaning o'рни va muammolarining nazariy-metodologik jihatlari G.Murray, R.E.Slavin, X.Xekxauzen, A.Mehrabian, Z.Freyd, A.Maslou, D.Makklelland, R.Freydjer, P.C.Friman, K.D.Allen, M.L.Kerwin, R.Larzelere kabi olimlarning izlanishlarida yoritib berilgan. Biroq, talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish muammosi, pedagogik tizimlari, affiliativ motivatsiyaning psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillari va pedagogik modeli maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarning "OT-F8-214-Talaba-yoshlarni kasbiy va shaxsiy ijtimoiylashtirish (2019-2022-y.y.)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kooperativ yondashuv hamda affiliativ motivatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritish orqali talabalarda kooperativ yondashuvni shakllantirishning psixologik-pedagogik tizimini rivojlantiruvchi omillarini aniqlashtirish;

talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning uslubiy imkoniyatlarini kooperativ yondashuv asosida aniqlashtirish;

kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

talabalar ijtimoiy faolligi orqali affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning tarkibiy qismlari va xususiyatlarini integratsiyalashga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obykti kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish jarayoni belgilanib, bunda Farg‘ona, Buxoro va Termiz davlat universitetining “Pedagogika va psixologiya”, “Amaliy psixologiya” hamda “Matematika” ta’lim yo‘nalishining 450 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik manbalar tahlili, modellashtirish, pedagogik-ijtimoiy (test, anketa-so‘rov, suhbat, kuzatish) va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish hamda olingan natijalarni o‘rganishda matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda kooperativ yondashuvni shakllantirishning psixologik-pedagogik tizimini rivojlantiruvchi omillar (affiliatsiyaga yo‘nalganlik, affiliativ motivatsiyani bilish, hamkorlikka intilish, muloqot uchun muomalani to‘g‘ri yo‘naltira olish), guruh ishini tashkil etish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, aniqlik va tushunarliklik, muammoni hal qilishga qaratilgan yechimlar, hamkorlik va o‘zaro yordamni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va ishonch muhitini o‘rnatish, xulosa va mulohazalar kabi sifatlar aniqlashtirilgan;

talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish komponentlari (kognitiv, hissiy, dunyoqarash va xulq-atvorga doir) kasbiy sifatlar (insonparvarlik, fuqarolik va kompetentlik) va shaxsiy ijtimoiy tajriba (fikrni mustaqil ifodalay olish, fikrlashdagi moslashuvchanlikning namoyon bo‘lishi, o‘z-o‘zini ishontirish) bilan uyg‘unlashtirishning uslubiy imkoniyatlari kooperativ yondashuv asosida dalillangan;

kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning maqsadli, metodik, operativ-mazmunli, o‘quv, nazorat-baholash bloklarini o‘z ichiga oladigan tashkiliy-funksional modeli shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosidagi o‘quv faoliyatining komponent (qiymatli-motivatsion, mazmunli-protsessual, shaxsiy-refleksiv)lariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalar ijtimoiy faolligi orqali affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning tarkibiy qismlari (hissiy-irodaviy, mazmunli-operatsion, motivatsion) amaliy-kasbiy

faoliyatning axloqiy bilimlar, shaxsiy-ijtimoiy tajriba, mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlarini integratsiyalashga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish mezonlari va darajalari aniqlashtirilgan;

kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishga doir trening mashg'ulotlar majmui ishlab chiqilgan;

“Umumiy pedagogika” nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika fanining amaliy, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishga oid yangi nazariy yondashuv, g'oya, tavsiyalar bilan boyitilgan, diagnostik mezonlari, ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan hamda talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning izchilligi va uzluksizligi taklif etilgan mezonlarga mosligining ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, bo'lajak o'qituvchilarni jamiyatdagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga maqsadli yo'naltirish hamda uning samaradorlik darajasini oshirishga erishilgan. Shuningdek, bildirilgan tavsiya va takliflardan bo'lajak o'qituvchilarning affiliativ motivatsiyani rivojlantirish jarayoni mazmunini takomillashtirish, “Umumiy pedagogika”, “Pedagogik mahorat” fanlari mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik va didaktik ta'minotdan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini rivojlantirish imkoniyatlariga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

talabalarda kooperativ yondashuvni shakllantirishning psixologik-pedagogik tizimini rivojlantiruvchi omillar (affiliatsiyaga yo'nalganlik, affiliativ motivatsiyani bilish, hamkorlikka intilish, muloqot uchun muomalani to'g'ri yo'naltira olish), guruh ishini tashkil etish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, aniqlik va tushunarlilik, muammoni hal qilishga qaratilgan yechimlar, hamkorlik va o'zaro yordamni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va ishonch muhitini o'rnatish, xulosa va mulohazalar kabi sifatlarga doir amaliy taklif va tavsiyalardan barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan “Umumiy pedagogika” nomli o'quv qo'llanma mazmunida aks etgan. (Termiz davlat universiteti rektorining 2024-yil 25-maydagi 250-PO'-son buyrug'i, 250-PO'-013 raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishga erishilgan;

talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish komponentlari (kognitiv, hissiy, dunyoqarash va xulq-atvorga doir) kasbiy sifatlar (insonparvarlik, fuqarolik va kompetentlik) va shaxsiy ijtimoiy tajriba (fikrni mustaqil ifodalay olish, fikrlashdagi moslashuvchanlikning namoyon bo'lishi, o'z-o'zini ishonitirish) orqali uyg'unlashtirishning uslubiy imkoniyatlari va tarkibiy qismlari (hissiy-irodaviy, mazmunli-operatsion, motivatsion) amaliy-kasbiy faoliyatning axloqiy bilimlar, shaxsiy-ijtimoiy tajriba, mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlarini integratsiyalashga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan FZ-2020010829 raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini yaratish" (2020-2022-yy.) amaliy loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 07-iyundagi 04/11-4956-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda affiliativ motivatsiya rivojlantirish orqali kasbiy sifatlar va shaxsiy ijtimoiy tajriba samaradorligi oshgan;

kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning maqsadli, metodik, operativ-mazmunli, o'quv, nazorat-baholash bloklarini o'z ichiga oladigan tashkiliy-funksional modeli shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosidagi o'quv faoliyatining komponent (qiymatli-motivatsion, mazmunli-protsessual, shaxsiy-reflektiv)lariga ustuvorlik berishga doir taklif va tavsiyalardan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2018-2020-yy.) amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 07-iyundagi 04/11-4955-son ma'lumotnomasi) Natijada, kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimining samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish. Jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 144 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'satilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'quv jarayonini kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning nazariy asoslari, tadqiqot ishining kategorik tushunchalari mazmuni, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

“Kooperativ yondashuv” tushunchasi uzoq vaqtdan beri mavjud. Biroq, sohaning uslubshunos olimlari tomonidan “kooperatsiya” va “kooperativ yondashuv” tushunchasining aniq ta'rifi haqida turlicha fikrlar keltirilgan.

“Kooperatsiya” so'zi ingliz tilidan tarjima qilganda “hamkorlik”, “hamkorlik qilish” degan ma'nosini bildiradi.

Zamonaviy olimlar hamkorlik g'oyalarini ijtimoiy sheriklik bilan bog'lab izohlaydilar, ya'ni ular ijtimoiy birdamlik tushunchasi hamkorlik metodologiyasi va amaliyotida o'zining aniq timsolini topdi, deb hisoblashadi.

Hamkorlik fenomeni bilan bog'liq dastlabki g'oyalar qadimgi faylasuflar Aflotun va Arastu asarlarida uchraydi. Aflotunning fikricha, “ideal davlat” teng va erkin fuqarolar manfaatlarining hamkorligiga asoslanadi, ular o'rtasidagi muammolarni birgalikda hal qilishga ochiq va oqilona muhokama orqali erishiladi.

Arastu “insonning birga yashashidan maqsad yashash emas, balki ezgulik, go'zallik va hikmatni ko'paytirib, baxtli yashashdan iborat”, deb ta'kidlaydi.

XVI-XVII asrlarda fuqarolarning birlashma shakli sifatida “ijtimoiy shartnoma”ning turli xil tushunchalari paydo bo'ladi. N.Machiavelli fikricha, hamma (xususan, davlat arboblari) tomonidan davlat vazifalari bajarilishida hamkorlikning uyg'unligi munosabatlarda tinchlik va totuvlikka olib kelishi mumkin.

Keyingi bosqichda (XVIII asr oxiri - XX asr boshlari) huquqiy davlat g'oyasida ijtimoiy hamkorlik tushunchasi ochildi. Bu bosqich A. Smit, I. Kant, G.V.F.Gegel, O.Kont, keyinchalik G.Spenser, S.Jarkova, M.Veber nomlari bilan bog'liq. Nazariy yondashuvlar va mafkuraviy-siyosiy paradigmalarning qarama-qarshiligiga qaramasdan, ularning har biri o'z pozitsiyasidan kelib chiqib, inson ijtimoiy mavjudligining asosi sifatida hamkorlik modelini qurishga katta hissa qo'shdi.

Zamonaviy sotsiologiyaning “otasi” O.Kont jamoat totuvligi roliga katta ahamiyat berib, ishchilar va kapitalistlar o'rtasidagi ziddiyat jamiyat uchun unumli emasligini, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va rivojlantirish orqali undan qochish mumkinligini isbotladi.

“Kooperatsiya” atamasining zamonaviy talqini dastlab M.Veber, keyin esa, T.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy harakat konsepsiyasida o'z ifodasini topgan.

Umuman olganda, “kooperatsiya” tushunchasi juda tez-tez mutlaqo boshqa kontekstlarda qo'llaniladi:

atamaning sof iqtisodiy talqini (tegishli tashkiliy tuzilmalar asosida fuqarolarning mehnat birlashmasining shakli sifatida hamkorlik ya'ni kooperatsiya);

ijtimoiy va axloqiy o‘zaro ta’sir (hamkorlik va shaxslararo o‘zaro ta’sir shakli sifatida) deya izohlanadi.

XX asrning 20-yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan davrda G‘arbda faqat inson xulqiga va uning motivlariga xos qator motivatsiya nazariyalari paydo bo‘la boshladi. Hamkorlikda ta’lim hamda tarbiyada paydo bo‘luvchi ikkilamchi (psixogen) ehtiyojlar va ularning motivlariga ham ushbu nazariyalarda e’tibor qaratildi.

Nazariy manbalar asosida shuni aytish mumkinki, kooperativ yondashuv kooperativ ta’lim negizida amalga oshiriladi. Shunga muvofiq kooperativ yondashuvni falsafiy va tarbiyaviy hodisa sifatida o‘rganishning qiyinligi uning konseptual noaniqligidadir. Kooperativ yondashuv o‘quv jarayonidagi faol hamkorlik va talabalarni birgalikda amalga oshiriluvchi faoliyatidir.

Shuningdek, ilmiy ishimizda mavjud “affiliatsiya” atamasi fransuz tilida “affiliation” so‘zidan olingan bo‘lib “birlashmoq” deya izohlangan. V.Shapar tomonidan tuzilgan eng yangi psixologik lug‘atda keltirilishicha, affiliativ motivatsiya (ing. “to affiliate” - birlashmoq, birlashtirmoq) - shaxsning boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilish hissi sifatida talqin qilinadi.

Affiliativ motivatsiya motivatsiya turkumiga mansub. Xususan, muvaffaqiyatga erishish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish ehtiyoji, affiliatsiya, hokimiyatga intilish, aggressiya, mustaqillikka intilish kabi motivatsiyalar tizimini ijtimoiy motivlar sifatida sanab o‘tish mumkin. Motivatsiya muammosi va uning tabiatga oid ko‘plab nazariyalar yaratilgan, aynan shu muammolarga asoslangan xorij psixologiyasida ham 50 dan ortiq nazariyalar mavjud.

Affiliativ motivatsiyani o‘rganishga oid adabiyotlar tahlillaridan, shu narsa aniq bo‘ldiki, insonga xos motivlar guruhiga oid psixologik yondashuvlar Garvard universitetining olimi G.Myurreyga tegishlidir. G.Myurrey ilk bor inson uchun zaruriy motivlarining ro‘yxatini tuzgan, bu ro‘yxat hozirgi kunga qadar motivatsiya muammosi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun o‘ziga xos qo‘llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Affiliativ motivatsiyani tarkibiy qismga ajratish tajribasi A.Mehrabian tomonidan ko‘plab izlanishlarining natijalari asosida kiritilgan bo‘lib, muallif ushbu motivatsiyani ikkita motivatorlarga bo‘lgan:

affiliatsiyaga yo‘nalganlik;
rad etilishdan qo‘rqish.

Yoshlar ma’naviyatida affiliatsiya motivatsiyasi psixologiyasini o‘rgangan olima N.T.Norkulovanning fikricha, “yoshlarni aqliy muloqotga undovchi maqsadlar, ehtiyojlar (muloqotga intilish yoki muloqotdan qochish) va motivlar (bilishga, o‘zini ta’kidlashga, hamkorlikka intilish ehtiyoji, muloqot uchun muomala) tizimi affiliatsiyadir”.


Oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchilarning hamkorlik asosida erkin munosabatga moslashuvchanlik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi kooperativ yondashuvning bevosita va bilvosita ta’sir omillariga bog‘liq.

O‘rganilgan nazariy tahlillarga asoslanib o‘quv faoliyatida affiliatsiya motivatsiyaning asosiy turi sifatida izohlanadi. Affiliativ motivatsiya shaxslarning

o‘zaro amalga oshiriluvchi munosabati. Shuningdek, kooperativ yondashuvni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Chunki, affiliativ motivatsiya inson yolg‘iz bo‘lganda emas balki insonlar bilan sherik bo‘lib hamkorlikda faoliyat olib borganida rivojlanadi. Shu nuqtai nazarga tayanib kooperativ yondashuvni shakllantiruvchi asosiy omillarni quyidagi turlarga ajratililishi maqsadga muvofiq:

Bilishga intilish motivatsiyasi, ya’ni bilimga bo‘lgan ehtiyojining mavjudligini tushunish; o‘zini o‘zi ta’kidlash motivatsiyasi (o‘quv jarayonida individuallikni bilish ehtiyoji); hamkorlik motivatsiyasi (o‘quv faoliyatida hamkorlik harakati foydaliligini tushunish); muloqot uchun muomala motivatsiyasi (talabalar o‘quv mashg‘uloti davomida va boshqa ko‘plab hollarda o‘z jamoadoshlari bilan iliq munosabatlar olib borish ehtiyoji);

Tahlillarimizdan kelib chiqib kooperativ yondashuvni shakllantiruvchi omillarni rasm shaklida keltirdik.(2-rasm)



1-rasm. Kooperativ yondashuvni shakllantiruvchi omillar

Talabalarda kooperativ yondashuvni shakllantiruvchi omillar guruh ishini tashkil etish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, aniqlik va tushunarlilik, hamkorlik va o‘zaro yordamni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va ishonch muhitini o‘rnatish, savol berish va javoblarni qabul qilish, muammoni hal qilishga qaratilgan yechimlar, xulosa va mulohazalar kabi sifatlar rivojlanishiga imkon beradi.

Tadqiqot ishimizning kategorik tushunchalaridan biri “pedagogik tizim” sanaladi. Pedagogik tizim konsepsiyasining mohiyatini asoslash ko‘plab gumanitar fanlar uchun mazmunli bo‘lgan uchta toifaga asoslanadi: tizim, shaxs, ta’lim. Ushbu toifalarning ilmiy tadqiqotlarini falsafa, psixologiya, pedagogika doirasida tahlil qilish zaruriy minimumni ta’minlaydi, uning o‘zlashtirilishi pedagogik tizimning konseptual asoslarini murakkab tizim sifatida tushunishga va uning shakllanishi dinamikasini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogikada “pedagogik tizim” tushunchasining paydo bo‘lishi va uning modifikatsiyalari tizimli yondashuv g‘oyalarining ta’lim nazariyasi va amaliyotiga ya’ni zamonaviy fanda keng tarqaldi.

Professsor V.R.Kuzmin “tizim” atamasini “doimiy birlik va yaxlitlikni tashkil etuvchi, shuningdek, yaxlit qobiliyat va qonuniyatlarga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘langan elementlarning ma’lum soni” deb tushunadi.

Olimlar S.A.Sarkisyan va L.V.Golovanovlarning ta’kidlashicha, tizim bu nafaqat ko‘p sonli birliklarning yig‘indisi bo‘lib, unda har bir birlik sabab-natija munosabatlari qonunlariga bo‘ysunadi, balki uni shartlaydigan alohida qismlarning

munosabatlari va aloqalarining birligi hamdir. To'g'ridan-to'g'ri murakkab funksiyani amalga oshirish, bu faqat bir-biriga bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi ko'p sonli elementlarning tuzilishi tufayli mumkin bo'ladi.

“Pedagogik tizim” ta'lim faoliyatining mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini tanlashning o'ziga xosligi va ko'p bosqichliligi tufayli umumiy, o'zgarmas, xarakterli bo'lishi mumkin. “Pedagogik tizim” jamiyatga, ya'ni o'zi bir qismi bo'lgan ijtimoiy tizimga bo'ysunadi. Jamiyat, o'z navbatida, ijtimoiy tuzumni shakllantirgan holda, eng umumiy pedagogik tizim sifatida unga mos keladigan ta'lim tizimini qurishda ko'maklashadi.

Keltirilgan izohlar asosida talabalarda affiliativ motivatsiyaning pedagogik va psixologik tizimini rivojlanishida konginitiv, hissiy, dunyoqarash, xulq-atvorga doir komponentlar tanlab olindi. Konginitiv rivojlanish shaxsning fikrlash, anglash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'stirib o'qish, kuzatish, izlanish va tanqidiy fikrlash orqali mustahkamlanadi. Dunyoqarashni rivojlantirish insonni yuksak darajadagi fikrlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi. Xulq-atvorga doir komponentlar esa talabani muloqot hamda munosabatlarda hamkorlik, halollik, va yordam berishga qaratilgan ijobiy xatti-harakatlar bilan boyitadi.

Xulosa sifatida atish joizki, hamkorlikda o'qitish orqali affiliativ motivatsiyani rivojlantirish talabalarning ta'lim olishidagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Kooperativ yondashuv asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish mazmuni, shakli, vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning belgilangan pedagogik shartlari oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonini takomillashtirishga, har tomonlama rivojlantirishga ko'maklasha oladigan optimal tashkiliy-pedagogik omillarning yagona kompleksi sifatida baholangan.

Kooperativ yondashuvning barcha boshqa shakllaridan muhim farqi bu guruhda qulay psixologik hamkorlik muhitini yaratish muhimligini ta'minlaydigan va muammoli vaziyatlarni ijodiy hal qilishga hissa qo'shadigan besh komponentning mavjudligini olimlar quyidagicha ajratib ko'rsatishadi:

- ijobiy o'zaro bog'liqlik;
- qo'llab-quvvatlovchi o'zaro ta'sir;
- individual javobgarlik;
- kichik guruhda birgalikda ishlash qobiliyati;
- natijalarni guruhda qayta ishlash.


Olimlarning yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarini tahlil qilish shuni ta'kidlashga imkon beradiki, talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishda kooperativ yondashuvni tashkil etishga tayyorlash kasbiy va shaxsiy ijtimoiy tajriba bilan uyg'unlashtirishni ta'minlash vositasi sifatida o'rganilgan. (2-rasm)

Kasbiy sifatlar insonning professional faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi va jamiyatga foydali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kasbiy sifatlardan insonparvarlik, fuqarolik va kompetentlikning ahamiyatli jihatalari keltirilgan:

Insonparvarlik asosida: Yordam va g'amxo'rlik ko'rsatish, empatiya va hurmat, etika va qadriyatlarga rioya qilish professional obro' va ishonchni shakllantiradi;

Fuqarolik asosida: Ijtimoiy mas'uliyat, qonun va tartibga hurmat, o'z jamiyatiga hissa qo'shish singari foydali ishlarni amalga oshirishga intilish hissi oshadi.

Kompetentlik asosida: Bilim va tajriba asosida o'qib-o'rganishga intilish, mas'uliyat va sifatli ish bajarish orqali jamoadoshlar ishonchini qozonish ko'nikmalari rivojlanadi.



2-rasm. Talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish asosida shakllanuvchi sifatlar

Nazariy tomondan o'rganilgan turli ilmiy ishlarda talabalarni qiyin bo'lgan topshiriqlarni bajarishga undovchi kuch muvaffaqiyatga erishish emas, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shaxsiy ijtimoiy tajriba hosilasi bo'lib u talabalarda fikrni mustaqil ifodalay olish, fikrlashdagi moslashuvchanlikning namoyon bo'lishi, o'z-o'zini ishontirish sifatlarini shakllantiradi. Shu asosda talabalarda o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, tanqidiy hamda ijodiy fikrlash, ichki motivatsiya va qat'iyat kabi ko'nikmalar rivojlanadi.


Talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirishda tegishli modelni - tadqiqot obyekti sifatining xarakteristikasi bo'lgan modellashtirishning maqsadi, vositalari va natijasini qurmasdan mumkin emas, ya'ni:

dialogik o'zaro ta'sirga asoslangan innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ijobiy motivatsiyani shakllantirish; zamonaviy darsni modellashtirish bo'yicha tajriba orttirish; talabalarni mustaqil loyiha-tadqiqot faoliyatiga jalb etish.

Biz strategik va taktik ko'rsatmalarni talabalarning milliy ongini rivojlantirish asosida isloh qilishga qaratilgan ierarxik bog'lanishlari, tarkibiy qismlari, amalga oshirishning pedagogik shartlariga ega bo'lgan strukturaviy-funksional modelni ishlab chiqdik va sinovdan o'tkazdik.

Talabalarning interaktiv o'zaro hamkorligini tashkil etish uchun affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modeli maqsadli, metodik, operativ-mazmunli, o'quv va nazorat-baholash bloklari (3-rasm) shaklida taqdim etilgan bo'lib, unda maqsad, ilmiy yondashuvlar, tamoyillar, bosqichlar, komponentlar, modelni amalga oshirishning pedagogik shartlari, tarkibiy qismlari, mezonlari va ko'rsatkichlari ifodalangan.

Pedagogik shartlar: talabalarni shaxsiy takomili jarayonida kooperativ yondashuv asosida affliativ motivatsiyani rivojlantirish uchun shaxsga yo'naltirilgan muhitni yaratish; o'qituvchi faoliyatida talabalarning interaktiv o'zaro hamkorligini tashkil etish uchun affliativ motivatsiyani amaliyotga yo'naltirilishi; kooperativ yondashuv asosida affliativ motivatsiyani rivojlantirish jarayonida talabalarni refleksiv faoliyatga jalb qilish.



3-rasm. Kooperativ yondashuv asosida talabalarda affliativ motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik modeli

Modelimizda asosiy maqsad talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish deya izohlangan.

Tadqiqotimiz uchun kompleksda talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning yuqori sifat standartlarini ta'minlaydigan va o'qitish modelining ishlashiga zamin bo'ladigan, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini aniqlash va ochib berish muhimdir.

Yuqorida berilgan ilmiy yondashuvlarga qo'shimcha ravishda, talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelining metodik blokida biz tamoyillarni (insonparvarlashtirish, interaktivlik, individuallashtirish, qulaylik, refleksiv) belgilab oldik.

Interfaollik tamoyili talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish hamda o'quv jarayonini tashkil etishning interaktiv shakllaridan foydalanishga asoslangan.

Individuallashtirish tamoyili talabalarning individual imkoniyatlari, ularning qobiliyatlari va hayotiy yo'nalishlarini hisobga olgan shaxsiy salohiyat va kasbiy tajribani amalga oshirishning individual traektoriyasini aniqlash imkonini beradi.

Qulaylik tamoyili talaba o'zining intellektual qobiliyatini, o'zaro hissiy va intellektual qo'llab-quvvatlash muhitini, xayrixohlik, hamkorlik, birgalikda ijod qilish muhitini his qiladigan tegishli ta'lim sharoitlarini yaratadi.

Belgilangan ilmiy yondashuvlar va tamoyillar talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelining nazariy asosini tashkil qiladi va tadqiqotning konseptual g'oyasini belgilaydi.

Talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelining operativ va mazmunli bloki bosqichlarni(moslashish, intensivlashtirish, aniqlash) va komponentlar (qiymatli-motivatsion, mazmunli-protsessual, shaxsiy-refleksiv), tizimini o'z ichiga oladi.

Eksperimental tadqiqotning moslashish, intensivlashtirish, aniqlash bosqichi talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning komponentlarini shakllantirishga yordam beradi.

Qiymatli-motivatsion tarkibiy qism o'quv jarayoniga qiziqishni shakllantiradi va maqsadlarni belgilaydi.

Mazmunli-protsessual qism ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan vositalar va usullarni taqdim etadi.

Shaxsiy-refleksiv qism esa o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni baholash hamda kelgusida faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi.

Bu komponentlar talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qilib, ularni ijtimoiy faollik va mas'uliyatni anglashga undaydi.

O'quv blogi interaktiv kasbiy vazifalar, o'qitish shakllari, usullari, vositalarini o'zida jamlaydi:

Interaktiv kasbiy vazifalar asosi sifatida o'quv jarayonida "Umumiy pedagogika", "Pedagogik mahorat" kasbiy fanlarining yangilangan mazmunini joriy etish deya izohladik. O'qitish shakllari, usullari interfaol kontekstli ma'ruza, ma'ruza-dialog, binar ma'ruza, seminar-trening, treninglar hamda aqliy hujum, ishbilarmonlik o'yini, keys-stadi (aniq vaziyatlarni tahlil qilish) kabi usullar

jamlanmasidan iborat. O'qitish vositalari sifatida darslik, o'quv qo'llanma, kompyuter, didaktik materiallaridan foydalangan holda talabalarda hamkorlikda ishlash, ishonchli munosabat o'rnatish, fikr almashish singari shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi

Modelning yakuniy nazorat-baholash blokida talabalarning interaktiv o'zaro ta'sirini tashkil etishning mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari aks etgan. Kooperativ yondashuvning tarkibiy qismlar bir-birini to'ldiradi va talabalarni jamoaviy muhitda ishlashga o'rgatadi.

Talabalarning interaktiv o'zaro ta'sirini tashkil etishda affiliativ motivatsiyani obektiv ravishda aniqlash uchun o'rganilayotgan tarkibiy qismlarning mezonlari (professional-motivatsion, kognitiv-funksional, refleksiv-baholovchi) aniqlandi. Modelimizda keltirilgan mezonlarni talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning belgilari sifatida ko'rib chiqamiz

Professional-motivatsion. Talabalarda gumanistik qadriyat munosabatlarning mavjudligi, talabalar markazlashuvi g'oyalarining ahamiyatini anglash, sheriklik, hamkorlik pedagogikasi, oliy ta'lim muhitida talabalarning interaktiv o'zaro ta'sirini tashkil etish qobiliyatining istiqbolini shakllantirish motivatsiyasi mavjud.

Kognitiv-funksional. Talabalarining didaktik va uslubiy bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'quv predmeti bilan o'zaro ta'siri asosida ta'limni amalga oshirish jarayonini tashkil eta oladi.

Refleksiv-baholovchi. Talabalarning interaktiv o'zaro ta'siri orqali ularning kasbiy o'sishga, o'z-o'zini rivojlantirishga va takomillashtirishga intilishi kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Kooperativ yondashuv asosida talabalarning affiliativ motivatsiyasini rivojlantirish shaxslararo munosabatlarda o'zaro yordam va ijtimoiy aloqa orqali talabalarni ruhlantirishni maqsad qilgan ta'lim strategiyasidir. Strategiya talabalar hissiy holatini boshqarish, iroda ko'nikmalarini rivojlantirish, affiliativ motivatsiyani amaliyotda qo'llashga va jamoaviy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga, talabalarning o'zaro aloqalari orqali jamoaviy natijalardan zavqlanishga qaratilgan. Demak, talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelining barcha elementlari o'zaro bog'liq va bu uning yaxlitligi va tizimlilikini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba - sinov ishlarini tashkil etish va samaradorligini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot mavzu doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi tinglovchilarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

Talabalarda kooperativ yondashuv asosida affiliativ motivatsiyani rivojlantirish modelini amalga oshirish jarayoniga moslashtirish, faollashtirish va aniqlashga qaratilgan shakllantiruvchi pedagogik eksperiment bosqichida amalga oshirildi:

I bosqich - moslashish (2021-2022 yillar - II kurs);

II bosqich - intensivlashtirish (2022-2023 yillar - III kurs);

III bosqich - aniqlash (2023-2024 yillar - IV kurs).

Tajriba-sinovda ishlarida 78 nafar professor-o'qituvchi va 450 nafar talaba ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlari Farg'ona, Termiz va Buxoro davlat universitetlarida olib borildi. Nazorat guruhida mashg'ulotlar ana'anaviy metodika bo'yicha olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida biz tavsiya qilgan metodlar va mezonlar asosida talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishining birinchi asoslovchi bosqichida bizning asosiy vazifamiz, bu jarayon har bir talabada individual shaklda qanday kechayotganini hamda talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlanganligining mavjud holatini aniqlashdan iboratdir.

